



“QISASI AR-RABG‘UZIY” ASARIDA JONIVORLAR TASVIRI VA UNING LIRIK IFODASIGA DOIR QARASHLAR

U.U.Qobilov

Samarqand davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola badiiy adabiyotning dolzarb muammolaridan hisoblangan tabiat jonivorlari obrazni tasviri masalasiga bag‘ishlangan. Unda Burxonuddin Rabg‘uzi qalamiga mansub “Qisas ar-Rabg‘uzi” asarida hayvonot olami tasviri muammosi yoritilib berilgan. Shuningdek, maqolada tabiat jonzodlarining badiiy talqinidagi ramziy-majoziy ifodalariga ham e’tibor qaratilgan. Bu obrazlarning o‘zbek she’riyatidagi tasviri haqida ham ba’zi mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Mumtoz adabiyot, adabiy meros, “Qisas ar-Rabg‘uzi”, hayvonot olami, tabiat jonivorlari obrazlari, badiiy talqin, adabiy janr, qiyosiy tahvil, ramziylik, badiiy timsol.

Аннотация: Данная научная статья посвящена проблеме изображения образов существа природы считающегося актуальной проблемой в художественной литературе. В ней отображена проблема мира животных в произведении «Кисас ар-Рабгузи» Бурхануддина Рабгузи. В том числе, в статье обращено внимание художественной интерпретации символико-метафорическим изображениям существа природы. Подчеркивается, что существует некоторые мнения об изображении этих образов в узбекской поэзии.

Ключевые слова: Духовность независимости, литературное наследие, «Кисас ар-Рабгузи», животный мир, образы существа природы, художественная интерпретация, литературный жанр, сопоставительный анализ, символичность, художественный знак.

Annotation: Given scientific article is devoted to a problem of the image of images of beings of the nature considered as an actual problem in fiction. In it the fauna problem in product «Kisas ar-Rabguzi» is displayed by Burhanuddin Rabguzi. Including, in article the attention of art interpretation to symbolic-metaphorical images of beings of the nature is paid. It is underlined that exists some opinions on the image of these images in the Uzbek poetry.

Key words: Spirituality of independence, a literary heritage, «Kisas ar-Rabguzi», fauna, images of a being of the nature, art interpretation, a literary genre, the comparative analysis, symbolical character, an art sign.

Istiqlol tufayli beba ho olamshumul ma’naviy boyliklarning ro‘yobga chiqqanligi millatimiz adabiy-estetik tafakkurda hech bir tashqi omillarga ehtiyojmand emasligini ko‘rsatdi. Bu shundan dalolat beradiki, o‘zbek adabiyoti o‘zining ilk namunalaridayoq o‘zlikni anglashga, shu yurt istiqboli uchun fidokorlikka, insoniy qadr tuyg‘ularini ifodalashga intilgan. Bizga ma’lumki, uzoq vaqt sho‘ro mafkurasi qarashlariga muvofiq kelmagan ko‘plab nodir adabiy yodgorliklarimiz o‘rganilmadi. Jumladan, butun mohiyati bilan nafaqat bir xalq ma’rifati, balki jahoniy tafakkur sezimlarini ham qamrab olgan nodir adabiy yodgorlik “Qisasi ar-Rabg‘uzi” asari umuman adabiyotshunoslik e’tiboridan chetda qoldirildi. Bu asar Nosiruddin Burxonuddin Rabg‘uzi qalamiga mansub bo‘lib, adibning





yagona ijod namunasi va turkiy-o‘zbek mumtoz nasri uchun ham ilk badiiy tajriba bo‘lib kelgan edi. Istiqlol sharofati bilan bu bebaho asar joriy alifboda nashr etilib asar haqida alohida ilmiy tadqiqotlar yaratilib, O‘zbek adabiyotining noyob asarlaridan biri sifatida maktab, o‘rtta maxsus va oliy ta’lim darsliklariga kiritildi. Asar tasvir uslubi, ifoda vositalari va mazmun mundarijasi bilan avvalo badiiy ijod namunasidir. Unda adabiy-estetika, badiiyat, obrazlilik, epiklik, liriklik kabi masalalar ilohiyot, tabiat va jamiyat olami bilan bog‘lab talqin etilgan. Asarda keltirilgan o‘ttizdan ortiq adabiy janrlar adabiyot nazariyasi uchun ham boy manba bo‘lib xizmat qiladi. U badiiy struktural jihatlardan hamdu sano, madh, qissa, hikoyat, hikmat, rivoyat, latifa, ishorat, savol va javob, nukta, foyda, she’r, bayt, bashorat, g‘azal, xabar va boshqa shu kabi shakl-janrlardan tashkil topgan. Bu shakl-janrlarning bir qismi turkiy-o‘zbek adabiyoti uchun shu tilda yaratilgan birinchi janrlar ham hisoblanadi. “Qisasi ar-Rabg‘uziy” badiiyat va ma’rifat bobida sarhad bilmas asardir. Uning badiiy jozibadorligini ta’minlab turgan omillar ham bisyor. Shulardan biri undagi tabiat jonivorlari obrazlari talqinidir. Umuman olganda tabiat jonivorlari, hayvonot olami hamma davrlar va xalqlar badiiy adabiyoti uchun o‘lmas ilhombaxsh mavzu sanaladi. Unga qadimgi muqaddas kitoblar, xalq og‘zaki ijodi, yozma qomusiy asarlar ham manba hisoblanadi. Sharq, xususan, o‘zbek mumtoz adabiyotida ham tabiat jonzodlari tasviriga keng ahamiyat berilgan. Ular orasida, ayniqsa, qushlar badiiy obraz-timsol sifatida eng samarali o‘rinni egallaydi. Aynan qushlar obrazlari tasviri asosida alohida an’anaviy asarlar silsilasi ham vujudga kelgan. O‘zbek va umuman badiiy adabiyotda qushlar tasvirlanganda ramz-majoz ifodalari birinchi planga chiqadi. Bunga o‘zbek adabiyotidan “Lison ut-tayr”, “Zarbulmasal” asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Bundan tashqari tabiat jonivorlari badiiy obrazlari mumtoz she’riyat badiiyatini ham keng qamrab olgandir. Xuddi shunday “Qisasi ul-anbiyo”lar ham badiiy adabiyotda hayvonot olami timsollarini talqin etilishida muhim o‘rin tutadi. Ularda qushlar olamiga ko‘p bora murojaat etilgan. Qushlar nafaqat tabiat, balki mavjudlik yaratilgunga qadar bo‘lgan olamlar haqidagi esxatologik qarashlarda ham aks etiladi. Chunonchi, “Qisasi ar-Rabg‘uziy”da Alloh dunyoni yaratgandan keyin yer yuzi mulkini odam avlodiga qadar qushlarga bergenligi va qushlar yetti ming yil davomida bu mulkka egalik qilib boshqarganligi qayd etiladi. “Qisasi ar-Rabg‘uziy”da Muso





qissasidagi “Chigirtka voqeasi”, Ibrohim qissasidagi “Ibrohim qo‘lida tirilgan qushlar voqeasi”, Sulaymon qissasidagi “Sulaymonning chumoli bilan so‘zlashgani”, “Hudhud so‘zları”, Yunus Zunundagi “Ashof ul-kahf qissasi”, “Ashof ul-fil qissasi” lavhalarida tabiat jonzodlari alohida tasvirlangan. Asarda tabiat jonzodlari tasviri bilan tutashmagan birorta qissa ham yo‘q. Asar qissalarida bir yoki bir qancha tabiat jonzodlari tasvir etiladi. Shu nuqtai nazardan “Qisasi ar-Rabg‘uziy”da hayvonot olamining butun bir galireyasi o‘z aksini topgan. Asarda muallif tabiat jonivorlarini ikki toifaga ajratib, hayvonot dunyosining yuzdan oltmis foizi sunda, qirq foizi quruqlikda ekanligini e’tirof etadi. Bu e’tirof zamonaviy fan qarashlariga ham deyarli mos keladi. Bu quruqlik va suvlik taqqoslanganda ham, suv va quruqlikdagi jonivorlar xillari qiyoslanganda ham seziladi. Asarda ilon, tovus, kabutar, tuya, qarg‘a, qaldirg‘och, hudhud, tovuq, baliq, chumoli, baqa, chivin, o‘rdak, tulki, sher, sigir, chumchuq, fil va boshqa jonivorlarga alohida e’tibor qaratgan. Asarda keltirilishicha, olamning yaratilish muddati olti kundir. Shundan seshanba kuni hayvonot olami yaratilgan. Rabg‘uziy talqiniga ko‘ra, jonzodlardan birinchi bo‘lib tabiat jonivorlari vujudga keltirilgan. Undan oldin samo jismalari: osmonlar, oy, quyosh, yulduzlar, keyin esa zamin ashyolari: suv, shamol, o‘simlik, inson va boshqalar tartib bilan yaratilgan. Asarda yetti qat samo va zamin tasvirlanganda ham tabiat jonzodlari tilga olinadi. Asarda tabiat jonzodlaridan chumoli, qaldirg‘och, hudhud, asalari kabilarga o‘zgacha ehtirom bilan qaraladi. Xususan, bir o‘rinda Rasul alayhissalomning “Odamga yo‘l ko‘rsatgan - ko‘k qarg‘a, Sulaymonga nasihat bergen – chumoli va elchi bo‘lgan - hudud, “Suratul-hashr” oxirini o‘qish uchun - qaldirg‘och, Namrud o‘tiga suv keltirgan - suv baqasi, odamlarga shifo bo‘ladigan - asal arini o‘ldirmanglar” - deb aytgan so‘zları ham keltiriladi[7.17]. Bundan ko‘rinadiki, tabiat jonzodlari har doim insoniyat bilan birgalikda tasvir etiladi. Shu bilan bir qatorda hayvonot olami tasviri asarda badiiy obraz darajasida ifodalanadi. Albatta, bu obrazlarga o‘ziga xos tarzda badiiy ramz, jonlantirish va metafora ifodalari yuklangan. Shuning o‘zi ham asar badiiyati jozibadorligini ta’min etilishiga xizmat etadi. Umuman asarda tabiat jonivorlari tasvirini ikki holatda uchratish mumkin. Birinchidan, turli jonivorlar badiiy qissalar yoki boshqa shakl-janrlarda muayyan o‘rinlarda shu matn mazmunidan kelib chiqib talqin etilgan bo‘lsa, ikkinchidan, ular





alohida tip va xarakter holida uchraydi. Shu nuqtai nazardan “Qissasi ar-Rabg‘uziy”da tabiat jonivorlari u yoki bu ma’noda deyarli barcha lavhalarda ko‘zga tashlanadi. Har bir qissa yoki boshqa epik-lirik shakllar turli jonzodlar timsollari ifodasi bilan o‘ziga xoslik kasb etib boradi. Tabiat jonivorlari badiiy xarakter sifatida esa muayyan qissalarda talqin etilganligini ko‘rish mumkin. Chunonchi, Odam va bani Odam qissalarida: ilon, tovus, it, qo‘y, sigir, qirg‘ovul, burgut, ho‘kiz, qarg‘a, Nuh qissasida: chumoli, eshak, arslon, kaptar, sigir, bo‘ri, qo‘y, mushuk, sichqon, to‘ng‘iz, ilon, chivin, qaldirg‘och, pashsha, baqa, it, tuya, qoramol, qarg‘a, tovuq, Solih qissasida: tuya, Ibrohim qissasida: qaldirg‘och, chumchuq, chivin, tirilgan qushlardan tovus, qarg‘a, o‘rdak, tovuq, Yusuf qissasida: bo‘ri, Muso qissasida: chigirtka, Sulaymon qissasida: chumoli, hudhud, uchar otlar, Yunus qissasida: ohu, baliq, Iso qissasida: ko‘rshapalak singari tabiat jonivorlari tasvir etiladi. Bir jihatdan ushbu jonivorlar tasviri mazkur qissalar bilan mantiqan bog‘lanadi. Asarda hayvonot jonivorlari tasvir etilganida ularning tabiiy xususiyatlari badiiy talqin bilan o‘zaro uyg‘unlashib ketadi. Boshqacha qilib aytilganda, bu adabiyotshunoslikdagi tarixiy haqiqat va badiiy talqin an’anasi singari bo‘ladi. Faqat bunda tabiiylik va badiiylik masalasi yuz beradi. Bunday uslub esa adibning mahoratini ko‘rsatibgina qolmay, balki tabiatsevar va atrof muhitning nozik kuzatuvchisi ekanligidan ham dalolat beradi. Misol tariqasida “Ibrohimning qo‘lida tirilgan qushlar” parchasiga e’tibor qaratsak, unda badiiy tasvirning diolog va hikoyat unsurlaridan foydalanib ajoyib mantiqiy-estetik lavha yaratiladi. Unda keltirilishicha, tovus, qarg‘a, tovuq, o‘rdak kabi qushlar Haqning tiriltirishiga ibrat uchun tanlab olinadi. “Bu to‘rt qushni so‘yguncha farmon bo‘ladi. To‘g‘ri yurgan qushlar o‘lmasin, jinoyat qilgan qushlar o‘lsin”. Savol: Tovusning jinoyati nima edi? Javob: Tovus jannat ichida Odam va Havoga jinoyat qildi. Iblis va ilonga Havo tomon ishorat qildi. Shundan ayoq boshi qoraydi. Savol: Qarg‘a nima jinoyat qildi? Javob: Qarg‘a Nuh to‘fonidan keyin quruqlikni ko‘rib kelish uchun yuboriladi. U quruqlikda ko‘p murdorlarni ko‘radi. Ularni yemoqchi bo‘lib qoladi, qaytib kelmaydi. Shundan Qiyomatgacha o‘laksaxo‘rga aylanadi. Savol: Tovuq nima jinoyat qildi? Javob: Tovuq Ilyos payg‘ambar to‘nini oladi. Bir-birlariga adovatli bo‘lib qoladi. Savol: O‘rdak nima jinoyat qildi? Javob: Yunus baliqdan chiqqanda go‘shti, tani zaif edi. Qavoq daraxtini o‘stirdi. O‘rdak qavoq daraxtining ildizini kesdi,



quvradi. Farmon bo‘ldi: Bu to‘rt jinoyatchi qushlarni o‘ldiring, jinoyat qilmaganlar o‘lmasisin. Yana aytadi: aynan bu to‘rt qush o‘limida hikmat nima? Tovus - barcha qushlardan chiroylidir, odamiyga o‘xshaydi. Tovuq - farishtalarga o‘xshaydi, doim zikr va tasbih bilan mashg‘uldir, hamma qushlardan zokirroqdir. Qarg‘a - shaytonga o‘xshaydi, ko‘rinishi qora, yoshi uzun. O‘rdak - parilarga o‘xshaydi, nopoliza va sovuq. Ba’zan ko‘rinib, ba’zan ko‘rinmaydi. Foyda shuki, ey Xalil, tovusni o‘ldirganingda odamlar, tovuqni o‘ldirganingda farishtalar, o‘rdakni o‘ldirganingda parilar, qarg‘ani o‘ldirganingda shaytonning o‘limini o‘ylagin. Bu to‘rt qushni tiriltirganimda, bu to‘rt xaloyiqni o‘ldirib yana tiriltirishimni o‘ylagin. Tiriltirishga qudratim bor ekanligini bilasan. Tovusda dunyoga o‘xshaydigan, o‘ziga jalg etadigan bezak, tovuqda shahvat, o‘rdakda sovuqlik, qarg‘ada o‘y bor. Ishora shuki, g‘ayrat qilichi bilan tabiat tanasida bu to‘rt sifatni (dunyo bezagi, shahvat, sovuqlik, o‘yg‘am) so‘ysa, mangu tiriklik bo‘ladi. Farmon bo‘ldi: Bu to‘rt qushlarni o‘ldir, boshlarini qo‘lingga ol, qolganini bir idishga solib to‘g‘ra, yanch, bir-biriga qo‘silib ketsin. To‘rt bo‘lak qil, to‘rtta tog‘ning tepasiga qo‘y. Shundan keyin chaqirgin, senga keladi. Ibrohim hammasini idishga soldi, yanchdi. To‘rt bo‘lagini tog‘ning to‘rt boshiga qo‘ydi. Boshlarini qo‘liga olib, berk tutib chaqirdi. Tangri farmoni bilan ular tog‘ tepasidan uchadilar. Havoda har birining suyagi suyagidan, go‘shti go‘shtidan, tuki tukidan ajraladi, o‘z o‘rinlariga keladi. Boshlariga ulashadilar. Kelib...ucha boshlaydilar”[7.84]. Shunday qilib Ibrohim payg‘ambarga o‘likni tiriltirish masalasi qushlar misolida ko‘rsatiladi. Bu to‘rtta qush asl tabiat jonivorlari bo‘lib, ular tasvirida shu birgina lavha nihoyatda ko‘p ma’noli xususiyat kasb etgan. Birinchidan, ular to‘rt davr voqeligini ochib bergan. Bu tovusning Iblisga Havoni ko‘rsatib xiyonat qilgani Odam, qarg‘aning quruqlikdagi murdalarni ko‘rib kemaga qaytib kelmagani Nuh, tovuqning to‘nni o‘g‘irlab oglani Ilyos, o‘rdakning daraxt ildizini kesgani Yunus qissalariga bog‘lanadi. Ikkinchidan, bu qushlardagi tabiiy o‘ziga xosliklar: tovusning xushsuratligi odamga, tovuqning zokirligi farishtaga, qarg‘aning qora va uzun yoshligi shaytonga, o‘rdakning sovuqligi va ko‘rinib-ko‘rinmay yurishi pariga tamsil etiladi. Uchinchidan, tovus o‘ldirilganda odamlar, tovuqda farishtalar, o‘rdakda parilar, qarg‘ada shaytonning o‘limi haqligiga ishora etadi. Bu to‘rt qush tiriltirilganida, to‘rt xalqning o‘ldirilib yana tiriltirilishiga ibrat deb qaraladi.



To‘rtinchidan, tovusdagi go‘zallik o‘tkinchi dunyo bezagiga, tovuqdagi shahvat dunyoviy hirsga, o‘rdakdagi sovuqlik olam bemehrлигiga, qarg‘adagi o‘y dunyo g‘amiga taqqoslanadi va qushlar o‘limi shu dunyoviy sifatlar yo‘q etilib abadiy tiriklik qozonish deb talqin etiladi. Ayni talqinlarda Rabg‘uziy ijodidagi yetuk badiyilik, teran falsafiylik va mantiqiylik yaqqol namoyon bo‘ladi. “Qisasi ar-Rabg‘uziy” asari tabiat jonivorlari tasviri bilan zamonaviy ruh ham kasb etadi. Bunda jamiyat, tabiat, insoniyatlararo daxldorlik muammolari barcha davrlarda va barcha ruhdagi asarlarda o‘z ifodasini topib kelayotganligidan hamda globallashib borayotganligidan darak beradi. Bu masalaga olam ahli e’tiborini jalb etgan Chingiz Aytmatov singari adiblar ijodiyoti kundan kunga qimmatini oshirib borayotganligi shundandir. Shu bois “Qisasi ar-Rabg‘uziy” singari mumtoz asarlarda ulkan muvozanat badiiy tasvirlarda inobatga olingan. Unda hayvonot olami tasviri masalalari ham shu muvozanatni belgilaydigan tomonlardan hisoblanadi. Asarda jonivorlar badiiy talqin etilganda shaxslantirilsa ham, ramziylashtirilsa ham tabiiylikdan butunlay tashqariga chiqib ketilmaydi. Bu esa tasvirlar ishonchliligi, ta’sirchanligi va tabiiyligini ta’min etadi. Ko‘rinadiki, “Qisasi ar-Rabg‘uziy” asari jozibadorligi unda keltirilgan hayvonot olami jonivorlari tasviri bilan ham namoyon bo‘ladi. Shuni qayd etish lozimki, “Qisasi ar-Rabg‘uziy” asaridagi tabiat jonivorlari tasviri boshqa ayni mavzuda bitilgan asarlar obrazlaridan badiiy-estetik jihatlari bilan farqlanadi. Masalan, asar “Lison ut-tayr” yoki “Zarbulmasal”da tasvirda ham, talqinda ham o‘ziga xos tafovutlarga ega. Bu holat aynan bir xil jonivor tasvirida ham va turlicha bo‘lgan jonivorlar timsollari ifodasida ham ko‘rinadi. Ya’ni, bitta qush yoki jonzod tasviri bu asarlarda uchrasa-da, lekin talqinda o‘zgacha ruh kasb etadi. yoki bo‘lmasa tasvirlangan jonivorlar xil va tur jihatdan rang-barangdir. Bu tasvirlarning bir guruhi mumtoz she’riyat poetik olamida an’naviy obraz-timsollar bo‘lib ham keladi. Shulardan hudhud, chumoli, it, kaptar, bo‘ri, baliq, ko‘rshapalak obrazlarini aytib o‘tish mumkin. Ayniqsa, hudhud timsoli o‘zbek mumtoz adabiyotida alohida poetik obraz darajasiga ko‘tarilgandir. Jonivorlar obrazlarining “Qisasi ar-Rabg‘uziy”, “Lison ut-tayr” yoki mumtoz she’riyatdagi badiiy ifodalari taqqoslanganda ham o‘ziga xosligi ko‘rinadi hamda bu masalaning epik, liro-epik va lirik talqini spetsifikasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Buni misol tariqasida hudhud obrazi talqinida ko‘rib o‘tish mumkin. “Qisasi ar-



Rabg‘uziy”ning Sulaymon qissasida “Hudhud so‘zlari” degan alohida bir ancha salmoqli fasli bor. Unda Hudhud Sabo mamlakatida Bilqis pari yashayotganligi haqida Sulaymonga xabar keltiradi. Sabo shahrining dovrug‘iyu shon-shuxratidan ogohlantiradi. Fasl voqealari Sulaymonning Bilqisga uylanishi bilan yakunlanadi. “Lison ut-tayr”da esa “qushlar shoh tilab topmog‘ondin mutahayyir bo‘lg‘onda, Hudhud Simurg‘din xabar” (“Qushlar shoh topa olmay turgan bir paytda Hudhud Simurg‘dan xabar keltirgani”) beradi[6.30]. Dostonda Hudhud bosh qahramon vazifasini bajaradi. Uning say-harakatlari oqibatida sayr etuvchi qushlarning o‘zi Simurg‘dan nishon ekanligi ayon bo‘ladi. Mumtoz, jumladan, Alisher Navoiy she’riyatida ham Hudhudning vazifasi xabar beruvchi bo‘lib keladi. Masalan, shoirning

Rafiqing tayr andoqkim Sulaymon ollida hudhud,

Buroqing soyir anjum shohi ostida sariroso -

baytida me’roj voqeasiga ishora orqali Sulaymon va Hudhud timsollari tasvir etilgan. Bundan ko‘rinadiki, talqinda Hudhud obrazini birlashtiruvchi masala “xabarchi”, “elchi” tushunchalaridir. Bu jihatdan Hudhud obrazi mumtoz she’riyatda mohiyatan Jabroil timsolini ifodalab beradi, shuningdek ushbu misralar Hudhud obrazi tasviri bilan bog‘liq masalalarga oydinlik kiritib beradi. Yoki shoirning boshqa bir she’rida:

Chu qurb Qofiq‘a yetting, yetishmadi Jibril,

Ne nav’ Hudhud Simurg‘ ila bo‘lur yo‘ldosh?

Bu o‘rinda fikr Muhammad payg‘ambar qurb holiga qaratilgan. Qurb - yaqinlik ma’nosini ifodalab, yuksakliklik jihatidan afsonaviy Qof tog‘iga o‘xshatilgan. Qurb maqomi jamiki insoniyat olami ichidagi eng yuksak maqom bo‘lib, u hatto eng yaqin, ya’ni muqarrab farishta Jabroil maqom darajasidan ham yuksak va faqat Muhammadga nasib etgan maqom deb talqin etiladi. Demakki, baytda “sen qurbga erishganingda Jabroil ham yetaolmaganidek, Hudhud Simurg‘ bilan qanday yo‘ldosh bo‘ladi?” – tarzidagi qiylar uchraydi. Ko‘rinadiki, Hudhud timsolining mumtoz epik va lirik talqinlarda mushtarak keladigan tomonlari mavjuddir. Mumtoz she’riyatimizda xuddi shunday bog‘liqliklar boshqa jonzodlar obrazlari tasvirida ham uchraydi. Chunonchi, tabiat jonivorlaridan Sulaymon obrazi talqinida “chumoli”,





Masih bilan “ko‘rshapalak”, Yusuf bilan “bo‘ri”, Yunus bilan “baliq” obrazlari qo‘llanadi va chuqur badiiy ramz vazifalarini o‘taydi. Bunda chumoli obrazi o‘zining jismoniy zaifligi bilan donolikda Sulaymondek shohi jahonni hayratga soladi, ko‘rshapalak Iso Masih tomonidan yaratilgan qush sifatida talqinda etiladi, bo‘riga Yusufni yeb quygan jonzod deb birodarlari tuhmat qiladi, baliq o‘z ichida Yunus payg‘ambarni qirq kun saqlaydi. Bunday tarixiy bog‘liqliklar mumtoz adabiyot sahifalarida ajoyib badiiy kashfiyotlarning, adabiy-estetik qarashlarning yuzaga chiqishiga xizmat etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, tabiat jonivorlari, hayvonot olami badiiy obrazlari talqini o‘zbek adabiyotida qadimdan bir an’ana bo‘lib kelgan. Uning manbalari boy xalq og‘zaki ijodi, muqaddas kitoblar, shuningdek, tabiat va jamiyat masalalariga bag‘ishlangan qomusiy asarlar hisoblanadi. “Qisas ar-Rabg‘uziy” asarida tabiat jonzodlari tasviri muallifning atrof-muhit, flora va faunaga o‘zgacha bir mehr bilan yondashganligini ham isbot etadi. Hozirgi kunlarda tabiatga munosabat har qachongidan ham dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Shuning uchun badiiy adabiyotning tabiat olamini tasvirlashiga ehtiyoji ham tobora kengayib boraveradi. Bu esa insonlar ongida tabiat va hayvonot olamiga muhabbat uyg‘onishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 томлик. Fozilov E.I. тарнрии остида.– Ташкент: Fan, 1983. – 656; – 644; – 624; – 636 б.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma томлик, биринчи том. Badoyi’ ul-bidoya – Tashkent: Fan, 1987. – 724 б.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma томлик, иккинчи том. Navodir un-nihoya. – Tashkent: Fan, 1987. – 624 б.
4. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. To‘qqizinchi jild. Lison ut-tayr. – Tashkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbba ijodiiy uyi. 2012. – 765 б.
5. Abu Nasr Forobi. “Fozil odamlar shahri”. Yangi asr avlod. Tashkent. 2016.
6. Mamasaliev M. M. Philosophical and Moral Aspects of Amir Temur's Foreign Policy //Miasto Przyszlosci. – 2023. – T. 35. – C. 210-215.





7. Мамасалиев М. АМИР ТЕМУРНИНГ ТАШҚИ СИЁСАТДАГИ ФАЛСАФИЙ-АХЛОҚИЙ ЖИҲАТЛАР //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 170-175.
8. Чориев, С.А., Рустамов, Р.Р. ДУНЁ ТАРГИБОТ СИСТЕМАСИ ЭВОЛЮЦИЯСИ // ORIENSS. 2022. №5-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dunyo-tar-ibot-sistemasi-evolyutsiyasi> (дата обращения: 22.01.2024).
9. Рустамов Р. Р., Тураева С. Х. Виды пропаганды, ее цели и задачи //Вестник науки. – 2020. – Т. 5. – №. 11. – С. 58-62.
10. Ruziboev Dilshod A'Zam Ugli TOURISM POWER OF UZBEKISTAN // ORIENSS. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tourism-power-of-uzbekistan> (дата обращения: 09.12.2022).
11. Norqulovich J. B. Globallashuv Davrida Migratsion Inqiroz //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 41. – С. 107-109.
12. Jalilov B. N. SOG'LOM TURMUSH TARZI VA UNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 276-282.
13. Буриев, И. И., & Мамасалиев, М. М. (2020). ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ. Вестник науки и образования, (22-2 (100)).
14. Бўриев И.И. ЎРТА ОСИЁДА СЎНГИ УЙГОНИШ ДАВРИ ВА ФАРБ РЕНЕССАНСИ // Вестник науки. 2020. №11 (32). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rta-osiyoda-s-ngi-uy-onish-davri-va-arb-renessansi> (дата обращения: 24.01.2024).

